



QASHQADARYO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

2024-*yl*  
*yanvar-dekabr*



## QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI SONI

2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **3639,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **78,7** ming kishiga yoki **2,2 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1553,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,7 %**), qishloq aholisi soni **2086,3** ming kishi (**57,3 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**3639,3** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+85,4** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2025- yil 1- yanvar holatiga

#### Shahar




**42,7%**

#### Qishloq



**57,3%**

### Erkaklar




**50,7 %**




**1845,4 ming kishi**

### Ayollar




**49,3 %**




**1793,9 ming kishi**

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



### Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

*2025- yil 1- yanvar holatiga*



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi sonining **34,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **10,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

*I-yanvar holatiga, ming kishi*

	2024- yil (yakuniy ma'lumot)	2025- yil (dastlabki ma'lumot)	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat hududlar:</b>	<b>3 560,60</b>	<b>3 639,30</b>	<b>102,2</b>
Qarshi sh	295,6	300,8	101,8
Shahrisabz sh	147,2	150,1	102,0
G'uzor	222,2	227	102,2
Dehqonobod	159,5	162,7	102,0
Qamashi	293,1	299,8	102,3
Qarshi	272,1	279,5	102,7
Koson	312,1	319,4	102,3
Kitob	282	287,7	102,0
Mirishkor	129,6	132,3	102,1
Muborak	93,4	95,2	101,9
Nishon	166,6	170,6	102,4
Kasbi	213	217,8	102,3
Ko'kdala	188,7	194,4	103,0
Chiroqchi	267,9	274,5	102,5
Shahrisabz	235,1	239,2	101,7
Yakkabog'	282,5	288,3	102,1


## Tug‘ilganlar soni

**Ma’lumot uchun!:** tirk tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirk tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.



### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **100,9** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **52,5 %** ni, qiz bolalar **47,5 %** ni tashkil etadi.



2024- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,8%**
- 2 nafar – **2,2%**

### Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, kishi

	2024- yil (yakuniy ma’lumot)	2025- yil (dastlabki ma’lumot)	O’sish sur’ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>101 852</b>	<b>100 909</b>	<b>99,1</b>
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	7 708	7 338	95,2
Shahrisabz sh	3 386	3 541	104,6
G‘uzor	6 452	6 569	101,8
Dehqonobod	4 915	4 666	94,9
Qamashi	8 739	8 947	102,4
Qarshi	7 739	7 696	99,4
Koson	9 305	9 173	98,6
Kitob	7 638	7 640	100,0
Mirishkor	3 737	3 472	92,9
Muborak	2 357	2 532	107,4
Nishon	5 006	4 892	97,7
Kasbi	6 085	6 121	100,6
Ko‘kdala	6 115	6 348	103,8
Chiroqchi	8 868	8 332	94,0
Shahrisabz	5 791	5 776	99,7
Yakkabog‘	8 011	7 866	98,2

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **100,9** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **28,0** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan plus **0,9** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar- dekabr oylarida **28,9** promille bo‘lgan).




## VAFOT ETGANLAR

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **15,5** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,4** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,7** promille).


### O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-dekabr, kishi*




2024- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **51,7 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,4 %** i – o’simtalardan, **9,9 %** i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **5,7 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,0 %** i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **1,0 %** i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **20,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

### QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **29,3** ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,1** promille tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,8** promille bo‘lgan).


### NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-dekabr oylarida **3,0** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,8** promille ni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,0** promille bo‘lgan).

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr



2024- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **52,2** % i farzandsiz, **24,7** % i bitta farzand bilan va **23,1** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2024- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **11109** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **17819** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi-**6710** kishini tashkil etadi. 2023-yilning mos davrida-**7113** kishi bo'lган.

### **Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi**

*2024- yil yanvar-dekabr, ( kishi)*




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **11109** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **3,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,5** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **2,6** promille bo'lgan).

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ko‘chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr, ( kishi)

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **17819** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyent **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,6** promille bo‘lgan).



### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



## QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migrations o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaqidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 75 221-15-84, 70-70*